



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTI TARBIYACHILARIDA «4 K» KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH IJTOMOIY ZARURIYAT SIFATIDA

*Ravshanova X.K.*

*Sam vil PYMO 'MM o 'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, «4 K» ko'nikmalari, tarbiyachi, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, kollaboratsiya, muloqot, bola, ijodkorlik.

**Ключевые слова:** образование, навыки «4 K», педагог, коммуникативность, критическое мышление, сотрудничество, общение, ребенок, творчество.

**Key words:** education, «4 K» skills, educator, communicative, critical thinking, collaboration, communication, child, creativity.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim shaxs shakllanishining poydevori hisoblanadi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasini bo'lgani uchun ham alohida e'tibor talab etadi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, zamonaviy yondoshuvlardan foydalanishimiz kerak. «4 K» modeli ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv sanaladi. Undan foydalanish bolalarning tanqidiy fikrlashiga, o'z fikrini erkin bayon etishiga, maktabgacha yoshdagi bolalarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kollaboratsiya va kommunikativlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun avvalo maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining o'zlarida mazkur ko'nikmalar shakllangan bo'lishi lozim. Dastavval «4 K» modeli nima ekanligiga to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlar tahlili. Dunyoda texnologiyalarning rivojlanishi, globallashtirish, demografik muammolar jamiyatni faol ravishda o'zgartirmoqda. Bugungi globallashtirish davrida ta'limning o'tgan asrda shakllangan bilim va ko'nikmalari bizning davrimizda muvaffaqiyat qozonish uchun yetarli emas. Ta'lim tizimi



ham o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqmoqda va ta'lim dasturlari tobora keng ko'lamli ko'nikmalarni o'z ichiga olmoqda. Eng muhimi, ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish qobiliyatidir. YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'lim sohasidagi asosiy xalqaro hujjatda "barqaror rivojlanish maqsadlari" [1] tasvirlangan va kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvorni o'rganish natijalari aniqlangan. So'nggi bir necha yil ichida butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'limda XXI asrning zamonaviy kompetensiyalari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun harakat qilib, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda noan'anaviy yo'nalishdan foydalanilmoqda. XXI asrning turli xil ko'nikmalari va ta'lim natijalarida ushbu ko'nikmalarning turli xil qoidalariga qaramay, ularning to'plami ancha barqaror bo'lib qolmoqda. Mavjud ko'nikmalarga yoki savodxonlikka qo'shimcha ravishda, Partnership for 21st Century Learning [2] XXI asr ko'nikmalari uchun asos yaratadi, unda "innovatsion ko'nikmalar" - tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, kreativlik va innovatsiya, muloqot va hamkorlikning ko'plab ko'nikmalari o'rin olgan.

Kreativlik. Shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati kreativlik hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot, ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqatan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin. Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug'ilganda kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo'lga yo'naltirish va rivojlantirish tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o'zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqay oladi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan ta'limiy faoliyat jarayonida qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda esa interfaol usullar yaqindan yordan beradi. Interfaol ta'lim turlaridan biri kreativ ta'limdir.

Kreativ usulda o‘tilgan mavzuni bola to‘liq o‘zlashtirishi bilan birga, ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shuning uchun tarbiyachidan o‘z fani yuzasidan chuqur bilimga ega bo‘lish bilan birga, ta‘limdagi samarali metod va usullardan ham xabardorlikni talab etadi. Chunki kelajakdagi yangi innovatsiyalar va ixtirolarning barchasi aynan kreativ kompetensiya orqali vujudga keladi.

Kommunikativlik.«Muloqot» tushunchasining turlicha ta‘riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta‘sirinishi sifatida ta‘riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta‘sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta‘rifidir.

Tanqidiy fikrlash atamasi xalqaro terminologiya tizimida (grek.) fikrlashning “tanqidiy” shakli sifatida yuritiladi.” Kritikos ” “tanqid”, “baholash”, “imtihon” va boshqalar kabi ko‘p ma‘noli so‘zdan kelib chiqqan; bu yerda “tanqid” tushunchasi kundalik hayotda “ayblash” ma‘nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma‘nosini bildiradi va “baholash”, “aniqlash”, “hukm qilish”, “ajratish qobiliyati” kabi ma‘nolarga ega. Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya‘ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o‘qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin. Suqrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu odamlarning bilimga bo‘lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko‘rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi.

Tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq eng qadimgi yozuvlar Platon tomonidan yozilgan Suqrot ta‘limotini taqdim etgan dialoglardir.Ular Platonning birinchi dialoglari bo‘lib, Suqrot bir yoki bir nechta suhbatdoshlari bilan axloqiy masalalar, masalan, Suqrotning qamoqdan qochishi to‘g‘ri bo‘ladimi, degan mavzuda gaplashadi. Faylasuf bu masalada mulohaza yuritar ekan, shunday xulosaga keladi: inson bilimi va aqlining rivojlanishi uning hokimiyat egasi yoki obro‘li shaxs ekanligiga bog‘liq emas, mavjud muammolardan qochish esa uning ustida tutgan barcha narsalarni (qadriyatlarini) buzadi. U hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo‘lishi mumkinligini isbotladi. Suqrotning fikricha, yaxshi hayot kechirish va hayotning qadriga yetish uchun inson tanqidiy savol beruvchi, “surishtiruvchi ruh”ga ega bo‘lishi



kerak. U g'oyalarni e'tiqodga loyiq deb qabul qilishdan oldin, uni chuqur o'ylashga undaydigan chuqur savollar berish kerakligini angladi.

Tanqidiy fikrlash Richard V.Pol tomonidan ikki to'liqinli harakat sifatida tasvirlangan (1994). Tanqidiy fikrlashning "birinchi to'liqini" ko'pincha "tanqidiy tahlil", tanqidni o'z ichiga olgan sof, oqilona fikrlash deb ataladi. Uning tafsilotlari unga murojaat qilganlar orasida farq qiladi. Barri K.Beyer (1995) fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash aniq, asosli hukm chiqarishni anglatadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida g'oyalar isbotlanishi, to'liq ko'rib chiqilishi va baholanishi kerak. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo'yicha AQSh Milliy kengashi tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta'riflaydi: kuzatish, tajriba, mulohaza yuritish, mulohazalar yoki muloqot orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni e'tiqod va harakatni (kontseptuallashtirish) boshqaradigan tushunchalarga faol va mohirona aylantirish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish yoki baholashning intellektual, ilg'or jarayoni sifatida aniqlanadi.

Kollaboratsiya- Jamoaviy ishlash ko'nikmasi. Hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda yordamni qabul qiling, birovning nuqtai nazarini qabul qiling, o'zingizni himoya qiling. Bir so'z bilan hamkorlikda ishlashga harakat qiling. Kollaboratsiyaviy ishlashda bir guruh odamlar umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qiladigan va har qanday sharoitda ham qo'yilgan maqsadga erishish ko'zda tutiladi.

Kollaborativlik, ya'ni hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, J.Xopkins universiteti professori R.Slavin, Minnesotti universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori Sh.Sharon tomonidan tadqiq etilgan. O'tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o'qitishda natijalarni oldindan aniqlash amaliy faoliyatni tashkil etish g'oyasini ilgari surgach, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya mamlakatlari ta'lim muassasalarida bu goyalar keng qo'llanila boshlagan. Hamkorlik pedagogikasi novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, V.F.Shatalov, E.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlarni tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega zarur qoidalar buyuk pedagoglar A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, K.Rodgers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va "XXI asr ta'limi konsepsiyasi" asosini tashkil etadi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir.



Kollabratsiyani samarali ishlashiga qo‘yiladigan asosiy talablar - bu yetarli miqdordagi guruh a‘zolari. Kollabratsiya tarkibida kamida 2 yoki undan ortiq a‘zo bo‘lishi kerak va ko‘pchilik kollabratsiyalar hajmi 2 dan 100 kishigacha tashkil qilishi mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim berishda «4 K» ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta‘lim yondashuvlari va texnologiyalari integratsiyasi asosida qurilishi mumkin. Bu jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir nechta usullar mavjud:

1. Muammoga asoslangan o‘qitish. Muammoni tushunish, tegishli resurslarga murojaat qilgan holda yechimini topish, shuningdek, mavjud bilimlarni ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining muammoni aniqlash, tushunish, sintezlash jarayoniga yo‘naltirish hamdir.

2. O‘yin texnologiyasi: Ta‘lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, ijodiy o‘yinlar bolada kreativ fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Loyihaga asoslangan ta‘lim: Maktabga tayyorlov guruhlarida loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bolalarda «4 K» ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bolalar jamoalarda ishlashlari, fikr almashishlari va muammolarni birgalikda hal qilishlari mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim tarbiya jarayonida «4 K» modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: bolalarning o‘rganish jarayonini boyitadi; bolalarga kognitiv (atrof-olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta‘limi) axborot beradi; bolalarda materialni o‘rganishga ishtiyiq uyg‘otadi; bolalarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiridi; axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi; bolalarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi; turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiydarajadagi guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni ilgari suradi; hamkorlik shunday holatki, ta‘lim jarayoni subyektlari birgalashib faoliyat qiladi, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, jamotchilik yuzaga keladi. Pirovard natijada jamiyat buyurtmasi bajariladi – raqobatbardosh, hamkorlikka shay, turli hayotiy vaziyatlarda muammolarni anglab, ularni hal qilishga dadil kirishuvchi, tafakkur kuchiga ishonuvchi, jamoada mustaqil mulohazalarini ayta oladigan, o‘z fikr va qarashlarini himoya qila oladigan, savodxon kadrlarni tarbiya qilamiz. «4 K» modelidan unumli foydalanish kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur



bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O'zbekiston Respublikasi Qonuni -595.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha Rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 2019-yil 5-may, PQ-4312
4. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori 2018-yil 8-dekabr, 999-son
5. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori 2020-yil 9-mart, 132-son
6. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T. 2018-yil 7-iyul, 4-sonli h.y.q
7. "Ilm yo'li" variativ dasturi. T. 2020-yil 17-mart, 54-sonli buyrug'i
8. Qodirova F.R., Fayzullaeva M., Rustamova M.. "Tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun nutq o'stirish mashg'uloti ishlanmalari" (metodik qo'llanma) T.: 2010.
9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives, 2017.
10. Framework for 21st Century Learning. The Partnership for 21st Century Learning, 2015.
11. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenge GES: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, 2016.
12. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education system alignment for 21st century skills: focus on assessment. – Brookings institution, 2018.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining maktabgacha yoshdagi bolalarga zamon talabi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish jarayonida ularda «4 K» ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyat ekanligi va buning usul va vositalari haqida so'z yuritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье говорится о социальной необходимости формирования и развития навыков «4 К» педагогов дошкольного образования в целях организации образовательного процесса дошкольников исходя из потребностей времени, а также о методах и средствах для этого.

#### SUMMARY

The article talks about the social necessity of shaping and developing the «4 K» skills of preschool teachers in order to organize the educational process of preschool children based on the needs of the times, and about the methods and means for this.